



G'AFUR G'ULOM KLASSIK ASARLAR TARJIMONI (PUSHKIN VA SHEKSPIR TARJIMALARI TIMSOLIDA)

Aslonov Yosin Farrux o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18831012>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24- fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 26- fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 28- fevral 2026 yil

KEY WORDS

O'z davrining eng serqirra ijodkorlaridan biri bo'lgan G'afur G'ulom shoir, nosir va dramaturg bo'lish bilan birga, mohir tarjimon sifatida ham ulkan meros qoldirgan

ABSTRACT

G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyatidan orttirgan tajribasi uning original asarlarida ham yorqin aks etadi, masalan, "Shum bola" qissasidagi ayrim lavhalarda Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asari bilan uyg'unlik sezilsa-da, bu tasvirlar mutlaqo o'zbekcha ruh va qiyofa bilan sug'orilgan. Shuningdek, u Sharq shoiri sifatida Bedildan chuqur ta'sirlangan bo'lib, olam ma'nosidagi "xonai xurshid" kabi obrazli ifodalar Bedil ijodidan G'afur G'ulom she'riyatiga mahorat bilan ko'chib o'tgan. Adibning 12 jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ning uchta jildi (8, 9, 10- jildlar) to'liq tarjimalardan iborat bo'lib, ularning umumiy hajmi 1600 sahifadan ortiqdir, bu esa uning o'zbek tarjima maktabining shakllanishiga qo'shgan hissasi naqadar ulkan ekanini ko'rsatadi.

O'z davrining eng serqirra ijodkorlaridan biri bo'lgan G'afur G'ulom shoir, nosir va dramaturg bo'lish bilan birga, mohir tarjimon sifatida ham ulkan meros qoldirgan. U o'zining bir necha 10 yillik ijod davri mobaynida butun asrga tatigulik adabiy meros qoldirgan desak, mubolag'a bo'lmas. Adib ijodini varaqlar ekansiz, turli xil yo'nalishlardan, turli sohalaridan iborat jamlanmaga duch kelasiz. She'riyat, nasr, tarjimonlik va hokozolar orqali yozuvchi jamiyatning illatlarini, kamchiligi insonlar fe'l atvorini kuchli tanqid ostiga oladi. Garchi adibning tarjimonlik faoliyati uning **"sof milliy ijod"** maqomidagi lirik she'rlari va qissalari soyasida qolib ketgan bo'lsa-da, u dunyoning o'nlab tillarida yaratilgan ellikka yaqin adibning asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'g'irgan. Uning tarjimalari janr jihatidan nihoyatda xilma-xil bo'lib, *Mushfiq Kozimiyning "Qo'rqinchli Tehron"* romanidan tortib, *Bedilning bir necha baytlik g'azallarigacha*, shuningdek, *V. Shekspirning "Otello"*, *Lope de Veganing "Qo'zibuloq qishlog'i"* va *F. Shillerning "Vilhelm Tell"* kabi dramatik asarlarini qamrab oladi. G'afur G'ulomning o'ziga xos "o'g'irmachilik uslubi" tarjima tilini zo'riqtirmaslik, murakkab iboralar bilan o'quvchini qiynamaslik hamda fikrni erkin va jaydari tarzda taqdim etishga asoslangan edi. Adib o'zbek tilining imkoniyatlariga cheksiz ishongan va tarjimada milliy tilning barcha boyliklaridan foydalanish lozimligini ta'kidlab, hatto hamkasblariga ham "O'zbek bo'lsang, topasan. Top!" deya qat'iy talab qo'ygan. U asarni o'zbek kitobxoniga yaqinlashtirish maqsadida "o'zlashtirish"

yoki mahalliy lashtirish strategiyasini qo'llagan bo'lib, 1940-yilda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini zamonaviy tilga "tabdil" (modernizatsiya) qilishi ham aynan shu maqsadga, ya'ni mumtoz merosni xalqqa yaqinlashtirishga xizmat qilgan.

Asosiy qism

G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyatidan orttirgan tajribasi uning original asarlarida ham yorqin aks etadi, masalan, "Shum bola" qissasidagi ayrim lavhalarda Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asari bilan uyg'unlik sezilsa-da, bu tasvirlar mutlaqo o'zbekcha ruh va qiyofa bilan sug'orilgan. Shuningdek, u Sharq shoiri sifatida Bedildan chuqur ta'sirlangan bo'lib, olam ma'nosidagi "xonai xurshid" kabi obrazli ifodalar Bedil ijodidan G'afur G'ulom she'riyatiga mahorat bilan ko'chib o'tgan. Adibning 12 jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ning uchta jildi (8, 9, 10-jildlar) to'liq tarjimalardan iborat bo'lib, ularning umumiy hajmi 1600 sahifadan ortiqdir, bu esa uning o'zbek tarjima maktabining shakllanishiga qo'shgan hissasi naqadar ulkan ekanini ko'rsatadi.

Tarjima- bu faqat so'zlarni boshqa tilga aylantirish emas, balki boshqa madaniyatning ruhini, tarixini va his-tuyg'ularini ham uzatish san'ati. Shu san'atning eng yorqin namoyandalaridan biri - G'afur G'ulom. U nafaqat o'zbek adabiyotining yorqin vakili, balki chet el klassiklarini o'zbek tilida jonlantirgan mohir tarjimon hamdir. Shekspir va Pushkin- adabiyot olamining ikki yulduzi. Shekspirning dramatik olami, murakkab personajlari va hayotiy qarama-qarshiliklari, Pushkinning shirin va nozik she'riyati o'quvchini o'ziga rom qiladi. Lekin ularni o'zbek tilida o'qish ko'pincha murakkab bo'lib tuyuladi. Shu yerda G'afur G'ulomning mahorati ochiladi. U tarjimada nafaqat so'zning, balki ritm, ohang va ma'noni ham saqlaydi, shuningdek, har bir satrga o'zbek ruhini qo'shadi. Masalan, **Shekspirning Otello tragediyasi** inson qalbining eng chuqur hissiyotlarini tasvirleydi. G'ulom tarjimasida har bir monolog o'zbek tilining ohangi bilan yangraydi, murakkab metaforalar esa oson va tushunarli bo'lib o'quvchiga yetadi. Shu tarzda, Shekspirning dramasi bizga nafaqat ko'ngil zavqi, balki hayotiy saboqlar ham beradi. Agar siz asl nusxani yozilgan tilida o'iganingizda balki bunaqa hissiyot ololmassiz asardan. O'zbek tilidagi boy lug'at orqali G'afur G'ulom o'z is'tedodlarini kashf etgan.

Pushkinning she'riyati esa boshqa bir olam. Uning satrlari yengil va ohangdor, lekin ichida insoniy hislar, muhabbat, tabiat va inson ruhiyati mujassam. G'afur G'ulom bu noziklikni, o'qiydigan har bir o'quvchining qalbiga yetib boradigan tarzda o'zbek tiliga ko'chirdi. **Graf Nulin yoki Yevgeniy Onegin** kabi asarlar orqali biz nafaqat rus adabiyotining oltin xazinasiga, balki o'zimizning adabiy didimizni boyitishga ham erishamiz. G'afur G'ulom tarjimalarining sirli jihati shundaki, u ikki dunyoni birlashtiradi - original tilning go'zalligini saqlab qoladi va shu bilan birga o'zbek tilining boy va ifodali imkoniyatlarini ochadi. Aslida G'afur G'ulomning ijod usuli ana shunda, u nafaqat tarjimalarida, balki o'z mualliflik asarlarida kitobxonga yanada yaqinroq bo'lish, asarlarning ommabop bo'lishi uchun o'zbek tilining serqirraligidan foydalangan. Shu bois Shekspir va Pushkinning uning tarjimasini orqali o'qish, kitobxon uchun haqiqiy zavqdir, siz nafaqat o'qiyotganingizni tushunasiz, balki har bir satrni yuragingizda his qilasiz. Adib tarjimalari shunchaki matn emas, ular o'quvchi bilan adabiyot orasidagi jonli ko'prikdir. Shu ko'prikdir orqali biz dunyoning eng buyuk dramatik va she'riy asarlarini o'zbek tilida his qilamiz va tushunamiz. Kitobni qo'lga olgan har bir o'quvchi bu ko'prikdan yurak bilan yuradi, Shekspir va Pushkin dunyosida o'zining yangi izini topadi.

Adabiyotning buyukligi uni jonli, tirik tilda his qilishda yotadi. G'afur G'ulom esa shu jonlilikni o'zbek tiliga olib kirgan tarjimon sifatida adabiyot olamida alohida iz qoldirdi. U

Shekspirning dramalari va Pushkinning she'riyati orqali xalqimizni butun dunyo klassikasining chuqur his-tuyg'ulari bilan tanishtirdi, har bir satrni faqat tarjima qilgani yo'q, balki uni o'zbek tilida qayta yashatdi. G'ulom tarjimalari orqali kitobxonlar – Shekspirning insoniy hissiyotlari, Pushkinning lirizmini o'z ona tilida kuydurolar ekan, cheksiz adabiy olamga izsiz kirib borish imkoniga ega bo'ldilar. Tarjimon mehri kitobxonni qadimiy asarlar bilan bog'laydi. bu bir ko'prikdir - ikki til, ikki madaniyat o'rtasidagi eng chiroyli ko'prikdir. Tarjima - bu so'zlar yuzasidan ko'chirishdan ko'ra, hissiyotlarni, ohangni va madaniy ruhni qayta yaratish jarayonidir. Shu jihatdan buyuk adiblar ham tarjima san'atining murakkab va jozibali sirlarini qadrlaganlar. Masalan, **“Tarjima — bu hamma narsani o'zgartiradigan, lekin hech narsa o'zgarmaganiday ko'rinadigan jarayondir”** - bu tafsir adabiy tarjima olamining sirli go'zalligini to'liq ochib beradi. G'afur G'ulomning tarjimalari esa aynan shunday „sirlardan“ biridi, u har bir satrda asliyat ruhini his ettiradi, tilning ohangini va mazmunini uyg'unlashtiradi. Badiiy tarjima orqali jahon adabiyoti nomoyondalarining vazmin satrlari o'zbek tilida yangi hayotga kiradi va kitobxon qalbiga yo'l topadi. Adabiyotsevar har bir o'quvchi uchun bu tarjimalar, asl ijodkorlarning ruhiy qiyofasini ochib beruvchi kalit hisoblanadi - ular bilan tanishish nafaqat bilim, balki ichki dunyo boyligi, yurak sezgirligi va til boyligini oshirish demakdir.

Xulosa

Shuni aytish joizki, tarjima faqat lug'aviy ko'chirish emas, balki adabiyotning qanday yashashi haqida ham bir fikrdir. Tarjimon asl asarni qadrlaydi, uni sevgani uchun uni o'z ruhida qayta yaratadi, shu tariqa o'quvchini boshqa adabiy olamlar bilan uchrashishga chorlaydi. G'afur G'ulom tarjimonlik faoliyatida asliyat ruhini saqlagan holda uni o'zbek tilining tabiiy va milliy imkoniyatlari orqali qayta yaratish tamoyiliga qat'iy amal qilgan. William Shakespeare va Alexander Pushkin tarjimalari misolida u ritm, ohang va obrazlilikni o'zbek kitobxoniga yaqin va ta'sirchan shaklda yetkazishga erishgani asoslandi. Natijada, adibning tarjimonlik merosi jahon klassikasini milliy adabiy muhitga singdirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etgani isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboyeva, M. M. (2025). G'afur G'ulom tarjimalari: adabiy uyg'unlik va milliylik. Научный информационный бюллетень (Ilm-fan xabarnomasi), 6(2), 188–194.
2. G'ulom, G'. (1983-1986). Mukammal asarlar to'plami. 12 jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.